



MUSIQA MADANIYATI TA'LIMIDA MUSIQIY SAVODXONLIK FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI

To'xtasin Ibodovich Rajabov

Buxoro davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Musiqa ijrochiligi va madaniyat, kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Sabina Sayfiddin qizi Safoeva

Buxoro davlat pedagogik instituti, Musiqa ta'limi kafedrasida, 1- bosqich talabasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyat xayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ulkan ijobiy o'zgarishlarga erishildi. O'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviy dunyoqarashi, tafakkur olamini milliy asosda shakllantirish, ularga musiqiy-badiiy jihatdan tarbiyalashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi va bu jarayon hozirgi kunda ham izchil tarzda davom ettirilayotganligi hamda ijobiy natijalar berayotganligi diqqatga molikdir.

Ta'limni milliy asoslarda qayta tashkil qilish va rivojlantirish yo'lida qilingan ishlardan yana biri - uzluksiz ta'lim tizimining hamma bosqichlarida mavjud bo'lgan musiqi ta'limi mazmuni musiqi savodxonligiga oid ma'lumotlar hamda tushunchalar bilan hajman va mazmunan yanada boyitildi. Bu holatni ta'lim tizimining eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo'lgan umumiy o'rta talim maktablari "musiqi madaniyati" fani uchun ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi, shu asosda yaratilgan darsliklar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Natijada o'sib kelayotgan yosh avlod milliy musiqi asarlarining yaratilishi, ijrosi, targ'iboti uchun zarur bo'lgan nazariy savodxonlik malakalarini o'quvchilarga singdirish masalasi bilan bevosita bog'liq bo'ldi.

Milliy musiqiy meros namunalari va ularda ilgari surilgan g'oyalar jamiyat taraqqiyotiga hamda shaxs ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Zero, "Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi"¹.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limni sifat va samaradorligini yangi bosqichda davom ettirish, uning mazmun - mohiyati ko'lamini yanada kengaytirish va uzluksiz takomillashtirish borasidagi ijtimoiy buyurtma ta'lim muassalari zimmasiga muayyan vazifalarni yuklamoqda. Ana shunday vazifalardan biri - yosh avlod musiqi ta'limida musiqiy savodxonlikka oid nazariy bilim, malaka va ko'nikmalardan, o'quvchilarning savodxonlik darajalarini yanada oshirishga e'tiborni kuchaytirishdan iboratdir. Bu esa o'z-o'zidan musiqi san'ati uchun muhim bo'lgan o'quvchilarning musiqiy savodxonlik doirasini tarkib toptirishdan iboratdir.

Masalaga bunday yondashuv ta'lim-jarayonini samaradorligini oshirish maqsadlarida keng foydalanish, o'quvchi-yoshlarni va ularning o'ziga xos xususiyatlari, musiqiy qiziqishi, didi va ehtiyojlarini rivojlantirishga har tomonlama yondashib, musiqiy faoliyatlarda ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Shu sababli musiqi savodxonligidan barcha musiqiy faoliyatlardan foydalanish borasidagi ishlarni, respublikamizda olib borilayotgan ilmiy pedagogik tadqiqotlarni, shuningdek, umumiy



oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarning musiqiy savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi holatni oʻrganish va tahlillar bizda ilmiy tadqiqot ishimiz mavzusini musiqa taʼlim-tarbiyasida oʻziga xos ahamiyat va oʻrin tutuvchi umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarni savodxonlikka oʻrganishning yanada samarali uslublarini ilmiy tadqiq etish ehtiyojini paydo qildi. Zero, boshlangʻich sinf oʻquvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish bilan bogʻliq ilmiy tadqiqotlar oʻz navbatida musiqiy savodxonlik jarayonlarini tashkil etish, uni boshqarish va ulardan taʼlim tizimida foydalanishning nazariy, amaliy, ilmiy-uslubiy va didaktik asoslari maxsus oʻrganilmagan va bugungi kunda umumtaʼlim maktablari musiqa taʼlimida oʻquvchilarning musiqaning nazariy asoslarini oʻzlashtirish va amaliyotda tatbiq etish kabi metodik masalalarga eʼtiborni kuchaytirish, shu orqali oʻquvchilarda musiqa madaniyati asoslarini tarbiyalash ishlarini takomillashtirish musiqa pedagogikasida tadqiq etilishi zarur muammo boʻlib kelmoqda. Bu esa bizni oʻz maqolamizni mavzusini Musiqamadaniyati taʼlimida musiqiy savodxonlik faoliyatining tutgan oʻrni, deb nomlanishimizga sabab boʻldi.

Umumtaʼlim maktablarida ham musiqa darslarida oʻquvchilar musiqa savodidan bahramand boʻlish barobarida egallagan savodi asosida ish koʻradi va bu faoliyat butun bir sinf oʻquvchilarini yaxlit qamrab oladi.

Umumtaʼlim maktablarida musiqa savodxonlik – darsning eng asosiy faoliyat turi hisoblanadi va unga darsning eng koʻp vaqti ajratiladi. Oʻquvchilarni musiqa savodiga oʻrgatish, ularda mazkur bilim, malaka va koʻnikmalardan barcha musiqiy faoliyatlarda foydalanish musiqa darslarining eng asosiy vazifalaridan sanaladi.

Musiqa savodxonligi oʻz oʻrnida bir qator jihatlarni talab qiladiki, bu malakalarsiz savodxonlikni tasavvur etish qiyin. Oʻquvchilarni musiqa savodxonligiga oʻrgatish uchun oʻquvchilar malakalarini qunt bilan, sabr-bardosh bilan egallab borishni va zarur koʻnikmalarga ega boʻlishini taqazo etadi. Musiqa savodxonligi elementlari – musiqa tinglash va uni tahlil qilish oʻquvchilarda bir qator jihatlarni jumladan, ularda koʻpchilik boʻlib kuylash davomida oʻzgalarni kuylashini eshitib, yagona organezmga birlashib, ansambllikni his etib kuylashga oʻrgatadi, oʻz navbatida bu ularni axloqiy va maʼnaviy jihatdan shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatadi.

Maʼlumki, musiqa savodidan oʻrganiladigan har bir tushuncha oʻz navbatida biror musiqiy materialni oʻzlashtirish uchun asos boʻladi. Albatta, bu oʻrinda musiqa savodxonligi elementlarining taʼlimiy imkoniyatlarga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, musiqa savodi aniq bir mazmunga ega boʻladi. Ikkinchidan, oʻquvchilar savodxonlik mazmunida aks etgan maʼno, ifodalarni musiqa asarlarini oʻrganish, idrok etish jarayonlarida his etishadi.

Jamoa boʻlib musiqiy savodxonlikni oʻrganish, oʻzlashtirish oʻquvchilarda aniq maʼlumotni egallash va musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Musiqa savodxonligi oʻquvchilarni musiqa asarini emotsional idrok etish, musiqiy dunyo qarashlarini shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatadi, ularni tartibga soluvchi kuch sifatida xizmat qiladi, musiqa asarlarini tushunish, anglash, his qilish, qadrlash tuygʻularini oʻstiradi.

Musiqa savodxonligi faoliyatiga asosli yondashish pedagogik jihatdan toʻgʻri boʻladi. Musiqiy nazariy bilimlarni oʻzlashtirishning jarayonida oʻquvchilar avvalo oddiy va sodda musiqiy nazariy tushuncha, maʼlumotlarni oʻzlashtiradilar.

Bu musiqiy tushunchalar oʻquvchilarda asarning gʻoyaviy-badiiy mazmuni, xarakteri haqidagi dastlabki taassurotlarni hosil qiladi. Birgalikda musiqa savodxonligini oʻzlashtirish oʻquvchilarga oʻzining xalq qoʻshuqlari bilah ishlash, folklor, xor bilan ishlash, dirijorlik qilish,



joʻrsiz kuylash, diksiya, intonatsiya, ansambllik, nafas ustida ishlash boʻyicha kerakli malakalarni shakllantirishga daʼvat etadi.

Mashgʻulotlar davomida oʻqituvchi mashqlaridan mohirlik bilan va oʻz oʻrnida foydalanadi hamda bu bilan oʻzidagi bor bilimlarini oʻquvchilar tomonidan qoʻshiq puxta oʻzlashtirilishi uchun juda qulay sharoit va vaziyatni vujudga keltiradi. Bunda oʻqituvchi bolalarni musiqani, unda ifoda etilayotgan voqelikni toʻgʻri va ongli idrok qilishga, oʻqituvchi koʻrsatmalariga rioya qilib kuylashga oʻrgatib boradi. Demak, sinf jamoasining asarni qanday tarzda kuylashi asosan va koʻp jihatdan musiqa savodxonligini qay darajada egallaganligini anglatadi.

Darsda oʻquv - tarbiya ishlari oʻquvchilarni musiqiy savodxonligini oshirib borishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday oʻquvchilar dars jarayonida ham musiqa oʻqituvchisining eng yaqin yordamchilari sifatida taʼlim sifat - samaradorligini taʼminlashda, qolaversa, tadbirlarda qatnashib, maktab shaʼnini himoya qilishda ham faol ishtirok etadilar.

Umumtaʼlim maktablarida “musiqa madaniyati darsi” boʻyicha ayrim nazariy--amaliy bilim, tushunchalarni mustahkamlash, toʻldirishga yoʻnaltirilgan musiqa savodxonligi, musiqa nazariyasi va tarixi haqidagi bilimlarni berib borishi yaxshi natijalar beradi. Oʻqituvchi oʻzining dastlabki faoliyati davrida oʻtkaziladigan oʻquv-tarbiya ishlarida bolalarda qoʻshiq aytishning boshlangʻich koʻnikmalarini hosil qilishga eʼtiborini qaratadi. Musiqa savodi - musiqiy tarbiyaning bir qismi boʻlib, oʻquvchilarning samarali natijaga erishishida zarur omillardan hisoblanadi. Bu boradagi ishlar, ayniqsa qoʻshiq oʻrganish jarayonini tezlashtiradi, oʻquvchilarning nota oʻqish va kuylash malakalarini oshiradi.

Musiqa darslarida olingan nazariy bilim va malakalar qolgan barcha faoliyatlarda, jumladan birgalikda kuylashda doimiyliigi, uzviyligi, musiqa savodi, kuylash malakalari kabilarni bir maqsad yoʻlida birlashtirilishi yaxshi natijalarga olib keladi. Ayniqsa, oʻqituvchi jamoa boʻlib qoʻshiq kuylash jarayonida musiqiy savodxonlik komponentlarini tashkil etuvchi bir qator vazifalarni amalga oshirish lozim. Misol uchun:

- ✓ qoʻshiq haqida dastlabki emotsional taassurotlar hosil qilish;
- ✓ qoʻshiqni musiqiy-nazariy tahlil qilish;
- ✓ qoʻshiq matni ustida ishlash;
- ✓ qoʻshiqni kichik boʻlaklarga boʻlib oʻrganish;
- ✓ qoʻshiqni bir necha marotaba qaytarish orqali mustahkamlash;

asarning musiqiy-badiiy obrazini tinglovchilarga yetkazib kuylash.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun oʻqituvchi eng avval tanlangan qoʻshiqning yaratilishi haqida, mualliflari haqida qisqacha nazariy maʼlumot berishi va cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berishi lozim.

Musiqa savodi faoliyati maktabdan boshlanadi. Musiqa savodi musiqa taʼlimi tizimidagi muhim jarayon hisoblanadi. Shuning uchun oʻqituvchi bolalarga zarur musiqiy-nazariy bilimlarni, maʼlumotlarni berishi kerak. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy oʻquvini oʻstirish va nota yozuvlarini oʻrganishdan iborat boʻlib-gina qolmay, balki oʻquvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa) tashkil etadi.

Musiqa savodi oʻquvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli-emotsional munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Ayrim kichik asarlarni



notaga qarab kuylashga o'rgatib borish ashula aytish malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatni o'sishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga ovozlarni aniq talaffuz qilishga va jamoa bo'lib qo'shiq aytish badiiy sifatini, samaradorligini oshirishga qulaylik yaratadi.

Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda – qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqa ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan asarlarining kim tomondan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, tonligi va hokazolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari darkor. Mana shu jarayonda musiqa savodxonligi benazir ko'makchidir.

Musiqiy-nazariy bilimlar ancha sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham, o'qituvchi imkoni boricha darslarni ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda dars o'tishi talab etiladi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major hamda minor ladi haqida tushuncha beriladi. Lekin bu tushunchalar oddiydan- murakkabga qarab, iloji boricha tizimiylikka rioya qilib o'rgatilsa, albatta ko'zlangan maqsadga erishiladi.

1-sinfda musiqa savodxonligidan boshlang'ich bilimlarni beradi. Bolalarning maktabga endigina kelganliklariga qaramay ular bog'chada ko'pgina ashulalar aytib. raqsga tushgan bo'ladi. Musiqa savodiga kirishdan avval bolalarning oldingi bilimlariga tayanishimiz kerak. Tabiiyki, bog'chada musiqa savodi o'rganilmaydi. Shuning uchun o'qituvchi nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bolarga musiqa haqida tushuncha beradi. "Siz qanday qo'shiqlarni bilasiz? Raqsga tushishni bilasizmi? Musiqani yaxshi ko'rasizmi?" va shu kabi savollar orqali o'quvchilar bilan faol muloqotga kirishadi. "Endi men sizlarga musiqa aslida nima ekanligi va qanday paydo bo'lganligi haqida gapirib beraman...", - deb, bolalarni o'zaro suhbatga tortadi.

O'quvchilar musiqa haqida tushunchaga ega bo'lganlaridan keyingina, ularning musiqaning ifodalovchi vositalari bilan tanishtirish mumkin bo'ladi. 1-sinfda o'quvchilar nota yozuvi, notalarning joylashuvi, notalar nomi, uzunligi bilan qisman tanishib boradilar. Musiqa boshqa san'at turlari kabi insonlarning o'zaro muloqat qilishga yordam beruvchi vositadir. Shuning uchun musiqa tilini yaxshiroq tushunish uchun, musiqaning muhim ifodalovchi vositalarini bilish ahamiyatlidir. Eng muhim bo'lgan vositalardan ladlar – major va minor lادلari haqida o'quvchilarga tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. 1-sinfning 2-yarmida bevosita nota yozuviga kirishish mumkin. Avvalom bor o'quvchilarga notalar yoziladigan chiziqning nega beshtaligi, nota yo'lining ahamiyati va ularda notalar qanday joylashishi haqida boshlang'ich tushunchalar berilgan bo'lmog'i lozim.

Musiqa savodxonligida notalar va ularning joylanishini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Nota yozadigan chiziq pastdan yuqoriga qarab sanalishini o'qituvchi doskaga yozib ko'rsatib berishi lozim. Skripka kaliti yoki sol kaliti haqida tushuncha berish kerak. Notalar yozilishidan oldin kalit belgisi qo'yilishi kerakligi, kalitsiz nota yozish mumkin emasligini o'quvchilarga misollar bilan tushuntiriladi.

Masalan, o'qituvchi: " Bolalar, maktabdan uyga kelganingizda eshikdan to'g'ri kirib ketasizmi, yoki avval kalit bilan ochib keyin kirasizmi?"

Bolalar: Kalit bilan ochamiz.

O'qituvchi: Demak, kalitsiz uyga kirib bo'lmas ekan-a?



Bolalar: Ha.

O'qituvchi: Musiqani yozish uchun ham musiqiy yo'lni avval kalit bilan ochamiz, ya'ni kalit belgisini qo'yishimiz shart, aks holda biz musiqa tovushlari olamiga kira olmaymiz.

Shu tarzda nota yozuvi o'rgatiladi. Yozishdan avval o'quvchilar notalar joylashuvini yodlagan bo'lishlari kerak. Masalan, DO–yordamchi chiziqda, RE–birinchi chiziqning tagida joylashgan. MI–birinchi chiziqda joylashgan bo'lsa, FA esa–birinchi chiziq bilan ikkinchi chiziqning orasida bo'ladi.

SOL–ikkinchi chiziqda, LYA bo'lsa - ikkinchi chiziq bilan uchinchi chiziq oralig'ida joylashgan. SI–uchinchi chiziqda joylashganligi tushuntiriladi.

Ana shundan keyin o'quvchilar sekin-asta beshta chiziqlarni qaysi birida qanday nota joylashganini o'zlari mustaqil topa boshlaydilar. Ayrim hollarda o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga tushunarliroq va qiziqarliroq bo'lishi uchun nota chiziqlari yordamisiz ham qo'l yordamida notalar joylashuvini topish va ko'rsatishlari mumkin. Buning uchun o'qituvchi qo'lini ko'ndalang holda tutib, har bir barmog'ini nota chizig'i, deb faraz qiladi. O'quvchilarga ham o'ng qo'llarini huddi shunday tutib, o'qituvchi bilan birgalikda chap qo'l ko'rsatkich barmog'ida notalar joylanishini o'rganadilar va o'qituvchi savol bergan notalarni o'zlari topib ko'rsata boshlaydilar. Demak, musiqa savodxonligi faoliyati maktabdagi eng muhim va yetakchi faoliyatlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni o'rganiladigan musiqiy asarlarni savodli holda o'zlashtirishlariga imkon va shart-sharoit yaratadi.

Musiqiy pedagogik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos psixologik-fiziologik, pedagogik-musiqiy xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) to'liq shakllanmaganlik, organizmining nozikligi; bir xil holatda turish, bir xil faoliyat bajarish jarayonida, ayrim o'qituvchining ohangsiz nutqi, darslarning bir qolipda o'tilishidan zerikish va tez charchab qolishlari; diqqatlarining tarqoqligi;
- 2) aqliy faoliyat jarayonida yo'naltirilganlik, tizimlilik malakalarining yetishmasligi, yorqin xotira;
- 3) erkin diqqatlarining ko'lami torligi (shuning uchun dars jarayonida tez-tez faoliyatlarni o'zgartirib turish kerakligi;)
- 4) aniq va yorqin obrazli tasavvurga ega bo'lishlari;
- 5) o'yinga moyillik: eng murakkab materiallar ham o'yin orqali yengil o'zlashtiriladi. O'yin o'quvchilarning tasavvurlari, diqqati, xotirasi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini faollashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizkim. Bugungi kunda taraqqiy etayotgan davlatimizda uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, asosiy omillarimizdan biridir. Bunda o'qituvchi o'quvchining harakatchanligini, motorikasini to'g'ri shakllarda uyushtirmoq, unga maqbul keladigan yo'nalish berish kerak.



Adabiyotlar.

1. Ражабов Т. И. Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3 (47).
2. Ражабов Тухтасин Ибодович, and Уктам Расулович Ибодов. "Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки." *Вестник науки и образования* 21-2 (99) (2020): 55-58.
3. Ражабов Т. И. (2021). Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.
4. Rajabov T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). Узбекская Народная Музыка Как Средство Патриотического Воспитания Учащихся В Наследии. *Онлайн-научный журнал инноваций в социальных науках*, 1(6), 139-145.
5. Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 55-58.
6. Ражабов Т. И. (2020). Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр. *Наука, образование и культура*, (3 (47)).
7. Ражабов Тухтасин Ибодович. "Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников." *Вестник науки и образования* 5-2 (83) (2020).
8. Ражабов Тухтасин Ибодович. "Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр." *Наука, образование и культура* 3 (47) (2020).
9. Ражабов Тухтасин Ибодович. "УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." *Наука, техника и образование* 2-2 (77) (2021): 84-86.
10. Раджабов Тухтасин Ибодович. "Описание вековых ценностей в песне" туговое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития*. 2019.
11. Раджабов Т. И. Описание вековых ценностей в песне" туговое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 70-71.
12. Раджабов Тухтасин Ибодович. "Описание вековых ценностей в песне" туговое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития*. 2019.
13. Ражабов Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In *Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире* (pp. 207-212).



14. Ражабов Т. И. Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.
15. Rajabov T. I., Ibodov O. R. Узбекская Народная Музыка Как Средство Патриотического Воспитания Учащихся В Наследии // *Онлайн-научный журнал инноваций в социальных науках*. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
16. Ражабов Т. И. Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3 (47).
17. Ражабов Тухтасин Ибодович, and Уктам Расулович Ибодов. "Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки." *Вестник науки и образования* 21-2 (99) (2020): 55-58.
18. Ражабов Тухтасин Ибодович, and Уктам Расулович Ибодов. "Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки." *Вестник науки и образования* 21-2 (99) (2020): 55-58.
19. Ражабов Тухтасин Ибодович. "Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников." *Вестник науки и образования* 5-2 (83) (2020). Ражабов, Тухтасин Ибодович. "Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников." *Вестник науки и образования* 5-2 (83) (2020).
20. Ражабов Т. И. Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
21. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
22. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
23. Rajabov T. I., Ibodov O. R. Узбекская Народная Музыка Как Средство Патриотического Воспитания Учащихся В Наследии // *Онлайн-научный журнал инноваций в социальных науках*. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
24. Ражабов Тухтасин Ибодович. ""Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора."." *Science and Education* 2.11 (2021): 1094-1103.
25. Rajabov T. I., Oripov N. O. Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a 25.Dolzarb Methodological Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.
26. Rajabov Tokhtasin Ibodovich, and Mahliyo Feruzovna Rutamova. "The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an



- Urgent Pedagogical Problem." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 404-408.
27. Ражабов Т. И. Фактор формирования национального мышления у школьников-молодежи через народные песни // Онлайн научный журнал "Устойчивость и ведущие исследования". – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 364-368.
 28. Раджабов Тухтасин Ибодович и Нигина Одилевна Орипова. «Обучение фольклорным песням бухарских детей в системе непрерывного образования как долзарбская методическая проблема». *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ* 2.2 (2022): 409-412.
 29. Раджабов Т.И. Рустамова М.Ф. (2022). Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни в системе непрерывного образования является актуальной педагогической проблемой. *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ* ,
 30. Раджабов Тухтасин Ибодович и Джахонгир Ихтиёрович Раджабов. «Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни – актуальная педагогическая проблема». *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ* 2.1 (2022): 331-335.
 31. Раджабов Т.И. СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СТИЛИ ИСПОЛНЕНИЯ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Научный прогресс. – 2021. – Т. 1. – №. 5.
 32. Раджабов Тухтасин Ибодович. " СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СТИЛИ ИСПОЛНЕНИЯ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ." *Научный прогресс* 1.5 (2021). Раджабов Токстасин Ибодович. " СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СТИЛИ ИСПОЛНЕНИЯ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ." *Научный прогресс* 1.5 (2021).
 33. Раджабов Т. Воспитательное значение народных песен в начальных классах //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 01. – С. 72-79.
 34. Ражабов Т. И. (2022). Фактор формирования национального мышления у школьников-молодежи через народные песни. Онлайн научный журнал "Устойчивость и ведущие исследования", 2 (1), 364-368.
Shamsiev, Sherzod Istamovich. "The role of folk songs in educating student's role of folk songs in student education."
 35. Ражабов Т. И. (2021). Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.
Ibodov O. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАРОДНЫХ ПЕСЕН НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
 36. Ражабов Т. И. Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3 (47).
 37. Ражабов, Тухтасин Ибодович. "Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр." *Наука, образование и культура* 3 (47) (2020).
 38. Ражабов Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In *Международная образовательная деятельность как фактор развития и*



сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире (pp. 207-212).

39. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
40. Ражабов, Тухтасин Ибодович. Фактор формирования национального мышления у школьников-молодежи через народные песни. *Онлайн научный журнал "Устойчивость и ведущие исследования"* 2.1 (2022): 364-368.
41. Ражабов, Т. И. (2021). Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.
42. РАЖАБОВ Т. И. МОДЕЛЬ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ФОРМИРОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ БУХАРСКИХ ДЕТСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН НА УРОКЕ МУЗЫКИ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ //ЭКОНОМИКА. – С. 138-141.
43. Ражабов, Тухтасин. " Правовые основы организации деятельности учреждений культуры и искусства." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
44. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). Узбекская Народная Музыка В Наследии-Средство Патриотического Воспитания Учащихся. *Интернет-научный журнал инноваций в социальных науках*, 1(6), 139-145.